



## AHAMONIYLAR IMPERIYASI

Mahmaraimov Izzat

Denov tadbirkorlik va pedagogika insitituti Tarix yo'nalishi  
1-bosqich talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10398068>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- December 2023 yil  
Ma'qullandi: 15- December 2023 yil  
Nashr qilindi: 18- December 2023 yil

### KEY WORDS

*Kir II, Midiya, forslar, Persepol, Doro I, yunon-fors urushlari, imperya, qo'zg'olonlar, To'maris, satrapliklar.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola yer yuzidagi daslabki imperiya – Ahamoniylar podsholigi haqida. Aynan Ahamoniylar daslabki imperiyani, ya'ni tili, madaniyati va aholisi turli bo'lgan va kuch bilan nazorat qilinadigan davlatni yaratdilar. Maqola davomida bu bilan batafsil tanishib chiqamiz.*

**ANNATATION:** This article is about the first empire on earth - the Achaemenid Empire. It was the Achaemenids who created the first empire, that is, a state with a different language, culture, and population, and controlled by force. We will get to know this in detail during the article.

**KEY WORDS:** Cyrus II, Media, Persians, Persepolis, Darius I, Greco-Persian wars, empire, revolts, Tomaris, satraps.

**АННОТАЦИЯ:** Эта статья о первой империи на земле - империи Ахеменидов. Именно Ахемениды создали первую империю, то есть государство с другим языком, культурой и населением, управляемое силой. Подробно с этим мы познакомимся в ходе статьи.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Кир II, Мидия, персы, Персеполь, Дарий I, греко-персидские войны, империя, восстания, Томариды, сатрапы.

**KIRISH:** Qadim zamonlardan boshlab Urmiya ko'lining janubiy tomonlarida parsua qabilalari yashar edi. Ular mil.avv VIII-VII asrlarda ular Elam hududiga ko'chib ahamon urug'idan chiqqan qabila sardori atrofida birlashishadi. Bu qabilalar ittifoqi Kayxusrav I davrida Ossuriyaga, Kambiz I davrida Midiyaga itoat qiladilar. Kambiz I va Midiya shohi Astiagning qizi nikohidan Kayxusrav II (Kir II) dunyoga keladi. Ahamoniylar davlatining yuksalishi aynan Kir II bilan bog'liq. U mil.avv 559-yilda Pasarga shahrini bunyod etadi va uni yangidan tashkil topgan davlatining poytaxtiga aylantiradi. U daslab bobosi boshchilik qilgan Midiyani bo'sundurgach keyinchalik Elam, Bobil va Lidiyani ham bo'sundiradi. Bu yurishlar davomida Kir II ga Lidiya podshosi Krez qattiq qarshilik ko'rsatadi. Mil.avv 549-545 yillar davomida Krez qoshinlarini mag'lubiyatga uchratib Kichik Osiyoni to'liq buysundiradi. Kir II ning mil.avv 530 -529 yillarda O'rta Osiyoga yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ko'chmanchi massagetlar malikasi To'maris Kir II qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratadi va bu jangda Kir II ham halok bo'ladi. Bu haqida yunon tarixchisi Geradot o'zining "Tarix" asarida to'liq ma'lumot berib o'tgan. Kir II vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Kambiz II o'tiradi. Kambiz mil.avv 525-yilda Misrni bo'sundirib mamlakat

hududlarini nihoyatda kengaytiradi. Ammo Kambiz Misrni bevosita mamlakatga qo'shib olmay o'zini Misr fir'avni deb e'lon qiladi. Uning Misrda ekanligidan foydalanib Guatama boshliq mahalliy sarkardalar isyon ko'taradilar. Bundan xabar topgan Kambiz II Erong qaytadi. Qaytish chog'ida Kambiz II sirli tarzda o'lim topadi. Uning o'limi sababi hozirgacha ham noma'lumligicha qolmoqda. Suiqasd sababchilaridan biri Guatama taxtga o'tiradi biroq mil.avv 522-yil 29-sentabrda u ham suiqasdlar natijasida o'ldiriladi. Shundan so'ng taxtga ahamoniylardan bo'lgan Doro I o'tiradi. Doro I davriga kelib Babil, Turon, Misr, Eronning o'zida ommaviy qo'zg'olonlar boshlanadi. Doro qo'zg'olonlarni bostirgach mamlakatda keng miqyosda islohotlar o'tkazadi. Xususan imperiya tarkibidagi mamlakatlarni 20 ta satraplikka ajratadi. Iqtisodiyotni jonlantirish maqsadida yirik savdo yo'li qurdiradi va qaroqchilarga qarshi shavqatsiz kurash olib boradi. Uning qurdirgan yo'li "shoh yo'li" deb atalib poyatxt Persepoldan O'rtayer dengizi sohillariga qadar cho'zilgan edi. Shuningdek Doro o'z mamlakatida yagona valyuta muomalasini ham kiritadi. Uning "darik", yoki "doroyi" deb atalgan oltin tangasi imperiyaning barcha hududlarida amal qilinishi majburiy etib belgilangan. Shu bilan birgalikda Doro o'zidan avvalgi hikmdorlar singari bosqinchilik siyosatini davom ettiradi. Uning Kichik Osiyoda joylashgan yunon koloniyalarini bosib olishi yunon-fors urushlarining boshlanishiga sabab bo'ladi. Yunon-fors urushlari qadimgi dunyo tarixida bo'lib o'tgan uzoq muddatli harbiy mojarolardan biri hisoblanadi. Bu urushlarda xususan O'rta Osiyo hududidan jangchi qilib olib ketilgan. Ular Fors qo'shinlarining old qatoralarida urushganlar. Ammo bu urushlarda forslarning qo'li baland kelmaydi. Keyingi hukmdorlar davriga kelib imperiya qudrati zaiflashib qoldi. Qo'zg'olonlar sarkardalar isyoni odatiy holga aylandi. Mil.avv 330-yilda Makedoniya shahzodasi Aleksandr va so'nggi ahamoniy shoh Doro III qo'shinlari o'rtasida hal qiluchi jang bo'lib o'tadi. Bu jangda Doro III mag'lub bo'ldi va Baqtriyaga qochdi. Bu paytda Baqtriya satrapi Bess, Doro III ni o'lidiradi va shu tariqa Ahamoniylar imperiyasi faoliyati to'xtaydi. Uning sobiq mulklari yunon-makedonlar tomonidan bo'lib olinadi.

XULOSA: Ahamoniylar imperiyasi davlat sifatida salkam 230 yil faoliyat yuritdi. Bu tarixiy vaqt davomida o'ziga xos madaniyat yaratildi. Xususan asviriy san'at qadimgi Eron madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Midiya va Ahamoniylar davrida haykaltaroshlik, rassomlik, toshga qabartma rasmlar ishlash, naqqoshlik tarqqiy etgan edi. Me'morchilik ham Eronda erta shakllanib, ahamoniy lar davrida rivoj topdi. Me'mor ustalar, shoh sarovlari, maktablar, ibodatxonalar, harbiy qal'alar qurib, ularning ichi va sirtini xilma-xil naqshlar bilan bezaganlar. Bu jihatdan Elamning Dur-Untash shahrida qurilgan 4 qavatli bino - zikkurat, Midiyadagi Xarxar qal'asi, Pasargadda qurilgan Kayxusrav II maqbarasi. Persepoldagi shoh Doro saroyi, Kserks saroyi qadimgi Eron me'morchiligining ajoyib namunalaridir. Ahamoniylar davrida asosiy din bu zardushtiylik dini edi. Eron shohlarining saroy qoldiqlaridan topilgan Ahuramazdaning tasvirlari buning isbotidir. Shu tariqa forslar tomonidan asos solingan imperiya o'zidan ancha katta meros qoldirdi.

#### References:

1. Safarovich, N. B. (2022). Distribution of Modern Sports in Central Asia in Colonial Conditions (Late XIX and Early XX Centuries) Spread of Modern Sports in Middle Asia Under Colonial Conditions (End of the XIX Century-Beginning of the XX Century). CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 21-29.

2. Nazirov, B., Qalandarova, M., & Maxmaraimova, P. (2023). O'RTA OSIYO VA QADIMG'I XITOY MUNOSABATLARI: BUYUK IRAK YO'LINING VUJUDGA KELISHI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(1 Part 1), 27-30
3. Nazirov, B. (2022). БУГУНГИ КУНДА СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТГА ЭТИБОР: ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси.
4. Менглибоев, А. Х. (2018). СТРАТЕГИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ В БОРЬБЕ С МЕЖДУНАРОДНЫМ ТЕРРОРИЗМОМ. Гуманитарный трактат, (29), 40-43.
5. Mengliboyev, A., & Qalandarova, M. (2023). ORIYLAR MUOMMOSI: ORIY QABILALARINING HINDISTONGA KIRIB KELISHI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(3), 167-170.
6. Mengliboyev, A. (2022). СУРХОН ВОХАСИДА ҚИЗИЛ АРМИЯ БОСҚИНИ ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ БОШЛАНИШИ. Adad Plyus.
7. Mengliboyev, A. (2022). ЖАНУБИ-ШАРҚИЙ БУХОРОДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎРНАТИЛИШИ ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА, 1920-1930 ЙИЛЛАР). Scienceweb academic papers collection.
8. Mengliboyev, A. (2021). СУРХОН ВОХАСИДА МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТ П НАТИЖАЛАРИ ВА ОҚИБАТЛАРИ.

INNOVATIVE  
ACADEMY